

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar kafedrası
Ochiq dars tahlili

BAYONNOMASI

Qatnashdilar: Bobojonov D., Isroilova M., Shomurodova N., Sobirjonova M.,
Amanova O., Davlatova Sh., Ruzieva R., Mahmudov Sh., Hamrayeva M.

Fan: Kasbga yo‘naltirilgan ingliz tili

Mavzu: Comparing Business English and Academic English

Guruh: Mxt 2, Magistratura ta‘lim boqichi

O‘qituvchi: Sodiqova Baxtigul

Sana: 25.11.2025

Darsning maqsadi: Talabalarga “Comparing Business English and Academic English” mavzusida biznes sohasidagi ingliz tili va akademik muhitda qo‘llaniladigan ingliz tili o‘rtasidagi farqlar bilan tanishtirish, ularning til birliklarini kontekstga mos ravishda to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirishdir.

O‘qituvchi mavzuni e‘lon qildi, darsning maqsadi va vazifalarini tushuntirdi. Talabalar bilan “Comparing Business English and Academic English” mavzusida qisqa suhbat o‘tkazildi. Dars jarayonida ayniqsa mavzuga oid termindan keng foydalanish, kontekstdan umumiy ma‘noni chiqarish yo‘llari ham keng tushuntirib berildi.

Talabalar 2 guruhga bo‘lindi. Har bir guruhga ingliz tilida 2xil matn parchasi berildi. Guruhlar matnni terminlardan foydalanib to‘g‘ri joylashtirib shakllantirishga harakat qilishdi. O‘qituvchi va talabalar har bir guruh ishini tahlil qilib, afzallik va kamchiliklarni muhokama qildilar.

Darsning yakuniy qismida talabalarning fikrlari tinglandi: “Bugungi mashg‘ulot sizga nimani o‘rgatdi?” O‘qituvchi darsni umumlashtirdi: mavzu doirasida talabalar so‘z boyligini kengaytiradi, turli matn turlari bilan ishlaydi, professional va akademik vaziyatlarda ingliz tilidan maqsadga muvofiq foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Amaliy mashg‘ulotlarda Business

Englishning amaliy, rasmiy, muzokara va ish jarayonlariga yo‘naltirilgan xususiyatlarini, Academic Englishning esa ilmiy-analitik, izohli, dalillarga tayangan uslubiy jihatlarini solishtirib tahlil qilishni o‘rgatadi. Dars interfaol tarzda, yuqori faollik va qiziqish bilan o‘tdi. Ushbu ochiq dars orqali talabalar nazariy bilimlarini amaliy tajriba bilan mustahkamlashdi.

Kafedra qarori:

1.O‘qituvchi: Sodiqova Baxtigul Kasbga yo‘naltirilgan ingliz tili fanidan “Comparing Business English and Academic English” mavzusidagi ochiq dars tahlili ma’qullansin.

2. O‘qituvchi Sodiqova Baxtigulning o‘tkazgan ochiq darsi talabga javob beradi va yuqori darajada tashkil etildi, deb hisoblansin.

Kafedra mudiri:

D.Tog‘aymurodov

Kotiba:

I. Choriyeva



